

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKLOTINING OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKDAGI ISHINING MAZMUNI VA USULLARI

Maxammadiyeva Surayyo Normuradovna

Navoiy davlat pedagogika institutining 2 –bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lism-tarbiya berishda tarbiyachilarining oila bilan hamkorlik mazmuni va usullari o'z aksini topgan. MTTning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lism tashkiloti, , tarbiyachi, oila, uzlusiz ta'lism , hamkorlik shakllari.

Ma'lumki, insonni voyaga yetishida uchta omil: nasl, oila, muhit muhim o'rinn tutadi. Bu omillarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda ana shu uch omil o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga e'tibor qaratilishi lozim. Bu masalada uzlusiz ta'limgning bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lism tashkilotlarining o'z o'rni mavjud. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda mahoratli pedagog bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan oilalar bilan samimiy aloqada bo'lishi nihoyatda muhim. Maktabgacha ta'lism tashkiloti va oila bir-biri bilan mustahkam bog'liq hamda ular o'rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola shuncha ko'p yordam oladi hamda uning dastlabki ta'lism tajribasi muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli ortadi. Tig'iz ish sharoitida oila bilan doimiy aloqa uchun vaqt topish hamisha ham oson emas, lekin tarbiyachilar bolaning muvaffaqiyatlari uchun uni juda muhim deb hisoblashsa, u kundalik ishning bir qismiga aylanishi va maktabgacha ta'lism tashkilorlari tarbiyachilarining oila bilan hamkorligi jarayonini o'ziga xosligini e'tirof etish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda mahoratli pedagog bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan oilalar bilan samimiy aloqada bo'lishi nihoyatda muhim. Maktabgacha ta'lism tashkiloti va oila bir-biri bilan mustahkam bog'liq hamda ular o'rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola shuncha ko'p yordam oladi hamda uning dastlabki ta'lism tajribasi muvaffaqiyatli bo'lishi extimoli ortadi.“O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlari to'g'risida Nizom” kabi muhim davlat hujjatida maktabgacha ta'lism tashkilotida ta'lism jarayonining qatnashchilari quyidagicha belgilab qo'yilgan: maktabgacha ta'lism tashkilotida bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlar ta'lism jarayonining qatnashchilari hisoblanadi. Bolalarni qabul qilishda maktabgacha ta'lism tashkiloti ota-onalarni yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni tashkilotining ustavi va uning faoliyatini tartibga soladigan boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi shart. Maktabgacha ta'lism tashkiloti bilan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnomasi

bilan tartibga solinadi. Sharhnomalar o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlarini va javobgarligini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'limga tashkiloti tarbiyalanuvchisi va xodimlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlarga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi. Maktabgacha ta'limga tashkiloti tarbiyachilar oilaning bolani ilk tarbiyachisi sifatidagi ustivor mavqeini e'tirof etishlari juda muhim. Zamonaliv maktabgacha ta'limga tashkiloti tarbiyachisi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Bola vositasida oila bilan muloqot qilish – murabbiylar jamoasi majburiyatlarining muhim qismi hisoblanadi. Barcha oilalar o'z bolalarining baxt-saodatidan manfaatdor va ularning yaxshi va mammuniyat bilan o'qishlarini istaydilar. Shuning uchun oila a'zolari uning yutuqlaridan xabardor bo'lishni xohlaydilar. Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va maktabgacha ta'limga tashkilotidagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarni mammuniyat bilan muhokama qilishlari kerak. Maxoratli maktabgacha ta'limga tashkiloti tarbiyachisi oilalar bilan aloqa qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qiladi:

- Vaqt topadi, imkoniyat yaratadi hamda ota-onalarning o'z fikrmulohazalari, quvonchlari, tashvishlari va niyatlarini gapirib berishlarini qo'llab-quvvatlaydi.
- Ko'z-ko'zga tushib suhbat qilish mumkin bo'lgan joyni tanlaydi va ma'lumotlarga hamisha maxfiy sir sifatida munosabatda bo'ladi.
- Oilalar tarbiyachilar bilan eng shaxsiy ma'lumotlarni o'rtoqlashadilar, binobarin, ularni sir saqlash muhim. Tarbiyachilar va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lishi kerak. Bolalar tashkilotida guruh deb ataluvchi uyushmada hurmat zarur tarkibiy element hisoblanadi. Tarbiyachilar ular bolalardan kutadigan o'zaro bir-birini tushunish, hurmat qilish va bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatishda namuna bo'ladilar. Bolalar boshqa bolalar bilan ijodiy o'zaro munosabatlarning mustahkam poydevorini qo'yadi. Mahoratli pedagog tomonidan MTT hayotiga erkaklarni ham jalb qilish, har bir bola ularning ham ardog'ida bo'lishini ta'minlash uchun butun kuch-g'ayratni ishga solish lozim. Ba'zan kun tartibi yoki birinchi uchrashuv onalar bilan bo'lgani sabab erkaklar bu ishdan chetda qolib ketadilar. Otarlarning maktabgacha ta'limga tashkilotidagi pedagogik jarayonlarga qay tarzda ishtiroy etishlarini aniqlashtirish, ya'ni ular balkim, ustachilik qilishni, ovqat tayyorlashni biladilar yoki san'atdan mashg'ulot o'tkazish uchun xonani jihozlashga yordam berishlari mumkin. Bundan tashqari maktabgacha ta'limga tashkilotida psixologik xizmat ham tashkil etilgan bo'lib, psixologik xizmat maktabgacha ta'limga tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxs (pedagog, bola, ota-on) manfaati va uning har tomonlama garmonik rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondoshadi. Psixologik xizmat ko'rsatish faoliyati maktabgacha ta'limga tashkiloti xozirgi zamon psixologiya fani yutuqlari bilan ilmiy uslubiyat bo'yicha ta'minlashga, insonning shaxsiy va intellektual (aqliy) jixatidan rivojlanishini diagnostika

qilishga, ta'lif va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga, eng muhim mavjud kamchilik va nuqsonlarning oldini olish (profilaktika)ga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. MTTning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin

MTT xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:

1.Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. MTTlar tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTT hayoti bilan tanishishlari.

2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

3.Ko'rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka

Ota-onaga pedagogik ta'lif berish va boshqalarini ko'rsatish mumkin.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ishi mazmuniga quyidagilar kiradi:

➤ ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

➤ ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

➤ bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish

Bola MTTda egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni bolalar bog'-chasida namoyon qilsa istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin.Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir ijobiy ishlarni ko'ribginaqolmay, balki uni qo'llab-quwatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalahtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda MTT direktori javobgar shaxs hisoblanadi.Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi.Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarda ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o'tkazish vaqtлari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning

mavzulari va mazmuni tarbiyachi metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishslash bo'yichajuda ko'p ishlarni tarbiyachipedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi. Bolalar MTT va oila o'rtasida hamkorlik o'matishda direktor, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishslashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi:

- ❖ Ma'muriyatning ota-onalar qo'mitalari bilan uchrashuvi
- ❖ Konferentsiyallar
- ❖ Ochiq eshiklar kuni
- ❖ Avlodlar uchrashuvi
- ❖ Savol-javobllar oqshomi
- ❖ Ota-onalar klubi
- ❖ Kuzatuv kengashi yig'ilishlari
- ❖ Ota-onalar universiteti
- ❖ Ota-onalar halqasi
- ❖ Bayramlar
- ❖ Ota-onalar haftaligi
- ❖ Ota-onalar uchrashuvlari
- ❖ Davra suhbati

Suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalami MTTga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish. Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobjiy tajribalarini o'rganib, ommalashtirishdir. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatdabo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishidan awal o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona birbirlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasawurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobjiy fazilatlari to'g'risida fikr, mulohazalarini bildiradi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalami o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga

hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarlubo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrgaawal u qanday o'ynayotganini ko'radilar, bolalarning uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak.Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rangbarang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi.Masalan:

- Bolalarni tarbiyalashda oilaning roli,ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- Maktabgacha tarbiya tashkilotining yillik ish rejasi to'g'risida;
- Ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiylar, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Ota-onalar majlisi

Ota-onalar majlisiga maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruuhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin. Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Majlisda direktor yoki metodist-tarbiyachi ma'ruza qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi,bolalar gapirishadi. Bular ta'lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o'z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda maktabgacha ta'lim tashkilotga qiziqish uyg'onadi. Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi.Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo'ssa, o'rta guruhdha o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnat sevarlikni tarbiyalashda MTTva oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va h.k. bo'lishi mumkin. Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin.Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobjiy materiallar ko'proq bolishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilarning nomlari ko'rsatilmasligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh

majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lif-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalar haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi. Bolalar bog`chasida o`tkaziladigan ota-onalar yig`ilishlarini eski tartibda faqat ma`ruzalar o`qish usulidan voz kechgan xolda chaynvord yechish, jumboqli masalalar yechish, anketa savollarga javob olish, ishchanlik o`yinlari o`tkazish kabi noan`naviy uslublardan foydalanish ota onalarning bevosita bola tarbiyachi bo`yicha pedagogik bilimlarga ega bo`lish istak xoxishini paydo qiladi. Ota-onalar yig`ilishida quyidagi mazmunda anketa savollarga javob olish ham ota-onalarni bola tarbiyasi bilan shug`ullanishga undaydi.

1. Familiyangiz, ismingiz, otangizning nomi, tug`ilgan yilingiz, ma`lumotingiz va manzilingiz.

2. Nechta farzandingiz bor? Bu guruhdagi farzandingiz nechanchisi? Ismi va sharifi.

3. Oilangizda farzandlaringiz uchun qanday sharoitlar mavjud. (tagiga chizing), mahsus xona, burchak, o`yinchoqlar, rasm chizish uchun anjomlar, plastinkalar, rasmli kitobchalar, sport anjomlari, yassi oyoqlikka qarshi massaj qiluvchi anjomlar.

4. Bir kunda necha soat bola tarbiyasi bilan shug`ullanasisiz?

5. Farzand tarbiyasida qiynalmayapsizmi? Xa yoki yoq. (tagiga chizing).

6. Sizningcha oila tarbiyasini nima qiyinlashtiryapti? (tagiga chizing)

tarbiyaga oid bilimlarning yetishmasligi, davlat ishi bilan band bo`lishlik, bog`cha bilan oila o`rtasida hamkorlikning yo`ligi.

7. Oilangizda bola tarbiyasi bilan kim ko`proq shug`ullanadi?

Bobosi, buvisi, onasi, otasi, akasi, opasi va boshqalar. (tagiga chizing)

8. Siz ko`proq nima tufayli bolangizga tanbeh berasiz,jazolaysiz, kelisha olmaysiz?

9. Farzandingiz ko`proq nimaga qiziqadi?

10. Farzandingizning kelajakda kim bo`lishini xoxlaysiz?

11. Farzandingizning qiziqishshini, mustaqil harakat qilishini, fikr yuritishni rag`batlantirasizmi? (tagiga chizing) ha yoki yo`q.

12. Bolangiz nima sababdan u yoki bu nourin xatolarga yo'l qo'yishi hollariga e'tibor berasizmi? (Ha yoki yo`q) Sababini surishtirmay jazolaysizmi?(tagiga chizing)

13. Oilangizda o`zaro munosabatni qanday baholaysiz?

(Juda ham yaxshi, unchalik xam yaxshi, unchalik yaxshi emas, yomon, juda ham yomon.tagiga chizing)

14. Farzandingiz to`g`risida boshqalardan ma`lumot olishga qiziqasizmi?

(Ha yoki yo`q) Kimlardan olasiz? (Qo`shnilardan,qarindosh-urug`lardan, tarbiyachidan, tagiga chizing)

15. Tarbiyaga oid adabiyotlarni, ro'znama va oynomalarni muntazam o'qib borasizmi?

16. Tarbiya haqidagi qanday ro'znama va oynomalarga obuna bo`lgansiz?

17. Tarbiyaga oid oynai jahon ko`rsatuvlarini tomosha qilasizmi?

18. Farzandingizga ertak, maqol,she`r,hikoyat,rivoyatlar aytib berasizmi?

19. Bir oyda necha marta farzandingizning MTTdagi faoliyatini kuzatgansiz?

20. Bola tarbiyasi bo'yicha qilayotgan ishlaringizni qanday baholaysiz?

- Namunali,qoniqarsiz.(tagiga chizing.)

21. Farzandingizga milliy qadriyatlarni singdiryapsizmi?

22. "Yaxshi" bilan "yomon"ni, "gunoh" bilan "savob" ni ajrata oladimi?

Har bir guruh xonasining ota-onalar burchagida quyidagi maslahatlarning ko'rsatilishi ham ular uchun katta yordan bo'ladi.

- Farzandingiz oldidagi har tomonlama namuna bo'ling.

- Bola bilan g'amxorlik, ruhlantiruvchi, tinchlantiruvchi ohangda gaplasting.

- Bola siz bilan gaplashayotganida uni diqqat bilan eshiting.

- Bola bilan muloqatda bo'lganda tevarak-atrofdagi narsalarning nomini ko'proq ishslating.

- Sekin gaplasting.

- Sizlarning izohlaringiz juda ham sodda,tushinarli bo'lmg'i lozim .

- Sabr -toqatli bo'ling.

- Dastaval boladan "nima?" keyinchalik "nima uchun?" savollariga javob olishga harakat qiling.

- Bolaning savol berishga intilishini rag'batlantiring

- Bolaga aniq va qattiq talablar qo'ying.

- Farzandingizni qiziquvchanligini va tasavvurini rag'batlantiruvini rag'batlantiring.

- Oilada farzand uchun alohida xona yoki burchak tashkil qiling.

- Sog'lomlashtirish jihozlari, urli xil o'yinchoqlar, bola yoshiga mos qo'shiq, she`r,ertak yozilgan plastinkalar,kitobchalar,rasm chizish anjomlarining yetarli bo'lishini ta'minlang.

- Har doim farzandingizga nima "yomon" , nima "yaxshi", nima "gunoh",nima "savob" ekanligini singdirib boring./sharqona odatlar.

- Tarbiyada qiz bolaga alohida,o'g'il bolaga alohida yondoshing.

- O'g'lingiz haqiqiy "alpomish" avlodlarini eslatuvchi, tog'ni talqon qilguvchi polvon, dovyurak, jismonan baquvvat bo'lib yetishsin

- Qizingizda o'ziga xos ibo,xayo,iffat, andisha kabi ma`naviy fazilatlar ufurib tursin.

-Shu tariqa maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va ota-onalar hamkorlikda uzlucksiz ta`limning bosh bug'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining vazifalarini amalga oshiradi.

Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish

Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqt-vaqt bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi. Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limi to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rinni oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uningdid bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi boladi. Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishida muhim o'rinni egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatları, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarini qanday tutishlari va shunga o'xshashlar ko'satiladi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining roli. — T.: O'zbekiston, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — T.: O'zbekiston, 2016.
3. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" S. Shodiqova T.: 2010
4. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida qonun" T.: 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" T.: 2020